

O'rinboyeva Mo'mina

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

"LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDA RUHIY TALQINLAR

Annotatsiya: Bu maqolada Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonining ruhiyat talqinlari, qahramonlar xarakteridagi aql va ishq munosabati hamda asarda nazarda tutilgan tasavvufiy masalalar haqida so'z boradi.

Tayanch so'zlar: Komil inson, xos ishq, botiniy va zohiriy qatlamlar, ilohiy ishq, tasavvuf.

"Layli va Majnun" - Alisher Navoiy "Xamsa"sining uchinchi dostoni. U 38 bob, 3623 baytdan tashkil topgan. Alisher Navoiy ijodida "Layli va Majnun" mavzusi alohida adabiy-estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. U "Layli va Majnun" dostonida Majnun timsolining komil inson obrazini yaratdi, lirikasida ramziy-majoziy va timsoliy xususiyatlarini ochib beradi. Navoiy dostonning ilk bobidayoq o'quvchiga o'z ramzlarining kalitini taqdim etadi. Ya'ni u Laylida ilohiy husn aks etganligini, Majnun esa Iloh ishqida aqldan ajraganini ta'kidlaydi. Layli arab manbalarida kichik epizod obraz – ko'rinishga ega bo'lgan. Navoiy uni dostonda mukammal, yetuk, barkamol ayol obraziga – sevgi va vafo ramziga aylangan. Ayni vaqtda dostonda Navoiy Layli va Majnunlar obrazi orqali majozni shakllantirgan. Bundan tashqari, "Layli va Majnun" dostonida kasb-hunarning nechog'liq foydasi tegishi, komil inson faqatgina ruhan pok, qalban ulg'aygan bo'lishdan tashqari o'zi ham yetuk bo'lmog'i haqida so'z yuritiladi. Qalbning komillikka erishishi har qanday salbiy illatlar zanjirini parchalashga qodir.

"Layli va Majnun" dostonini o'qir ekanmiz, unda ikki qarama-qarshi jins vakillari o'rtasidagi ishq talqini ilgari surilmaganiga guvoh bo'lamiz. Navoiy Hamd qismida keltirgan quyidagi misralar:

Ey har sorikim qilib tajalli,

Ul mazhar o'lub jahonda Layli.

Ya'ni: "Sen qayerda jilva qilgan bo'lsang, o'sha jilva jahonda odamlarga Layli timsolida ko'rinadi". Tushunishimiz mumkinki, Layli Majnun uchun xos ishq, ya'ni Majnun Haqning yerdagi tajallisi Laylida deb o'ylagan. Layliga bu yerda shunchaki Majnun uchun Haq jamolini ko'rish yo'lidagi bir ko'prik deya qarashimiz mumkin. Quyidagi fikrlarimiz bunga dalil bo'la oladi. Majnun jazirama sahroda o'z Laylisining ishqida devonalardek arz-dod qilib uni qidirib yurganini ko'rgan farishtalarning unga rahmi kelganidan Allohdan unga Laylisini berishni so'rashadi. Shunda Alloh Majnunning yonida sevgilisi Laylini paydo qiladi, ammo Majnun Layliga bir nazar tashlaydi-da yana yo'lida "Layli"deb nola qilishda davom etaveradi. Bundan ko'rinib turibdiki, Majnun nola qilayotgan, qalb tuyg'ularini qaynatayotgan, uni firoqda qiynayotgan asl Layli emas, aksincha, Tangrini nazarda tutganiga guvoh bo'lamiz. Navoiy g'oyat ustalik bilan tasvirlaganki, oshiq Qaysga Yaratuvchining har yerdagi tajallisi jahonda Layli bo'lib ko'rinadi, jilva qiladi, uning bu xususiyati esa yaratilganlarni Majnun qilishdan iboratligini ko'rsatib bergan.

Majnun deganda aql me'zonlarini kunpayakun qilib, qalb va ishq me'zonlarini o'rnatgan oshiq gavdalanadi. Bu me'zonlarda esa o'lchov, hadning o'zi yo'q. Majnun obrazi asrlar, yillar mobaynida necha asarlar, dostonlar, bugungi kunda esa badiiy adabiyotning go'zal namunalari

yaratishga asos bo'lib kelmoqda. U qatnashgan biror asar yo'qki, tag-zamirida pok muhabbat va sadoqatni tarannum etmagan bo'lsa. Navoiydek tasavvuf shaydosi o'z dostoniga ramz elementlarini shunday singdirganki, natijada, asarning botiniy va zohiriy qatlamlari hech bir-biriga halal bermasdan yaxlit butunlik hosil eta olgan.

Layl —“tun” demak, ya'ni “tun qizi, tunda tug'ilgan qiz”. Tun — bu zulmat, qorong'ilik vaqti, ammo shu narsa iymon, ishq, nur ifodasi bo'lgan Layliga biroz nomunosibdek, biroq boshqa bir tomondan qaraganda, ismdagi tun, aslida, hijron tuni, oshiqning yor hajrida kunduzlarining ham zulmatda ekaniga ishoradir. Aniqrog'i, o'sha oliy jamolga erishmoq uchun solikning foni dunyodagi ayriliq, hijron iztiroblari bir vosita, ularsiz Yorga yetib bo'lmaydi, ya'ni oq qog'ozga oq qalamda chizganda bilinmagani yoki nurni nur qo'ynida ko'rib bo'lmagani kabi, zulmat ham nurni ko'rish uchun bir vositadir.

Majnun —ilohiy ishqdan mast bo'lgan solik, aniqrog'i, ilohiy jazba tekkan inson. Layli esa Majnunni devona qilgan ilohiy go'zallik timsoli. Majnun shunday umumlashma obrazki, har bir inson o'zidan o'sha Majnunni topa oladi. Asarda ruhiyat tasviriga alohida e'tibor berilgan. Asar voqeasi haybatli tun tasviri bilan boshlanadi. Unda ikki yoshning dardga to'la ishq-muhabbati haqida so'z boradi. Ular bahor faslida sevishib qoladilar va tabiat so'lg'in tus olgan kuz faslida halok bo'ladilar.

Dostonda Haq taolo qudratini anglashda aqlning nechog'liq ojiz ekani ifodalanadi:

Ey sendin ulus xujasta farjom,

Og 'ozingga aql topmay anjom.

Ey aqlg 'a foizi maoniy,

Boqiysenu borcha xalq foni.

Bu orqali buyuk shoir faqat aqlgagina tayanish e'tiqod asoslariga muvofiq emasligini, aql va ishq munosabati bilan bog'liq doston konsepsiyasini o'quvchi shuuriga singdira boradi. Alloh taoloning husnni yoqimli, el ko'nglini unga asir qilganini ta'kidlar ekan, kitobxon ruhiyatini Qaysning Majnunga aylanishiga tayyorlaydi. Hazrat Navoiy talqiniga ko'ra, Haq taolo husni tajalli qilgani bois Layli Uning ishqiga mazhar bo'ldi. Laylining sifoti esa Majnun qilmoqdir:

Ey Majnunung xiraddin ozod,

Ohi beribon xiradni barbod,

Ey aql seningyo'lungda g'ofil -

Kim, telba sening yo'lungda oqil.

Hazrat Navoiy ana shu tarzda asarning hamd bobini asosiy syujet bilan mustahkam bog'laydi. Asardagi har bir so'z va obraz, har bir bayt va bob muallif ijodiy niyati ifodasiga xizmat ettiriladi. Navoiy o'z dostonida Layli va Majnun haqidagi afsona va rivoyatlardan foydalanadi. Biroq uning maqsadi «afsona» so'zlash emas, balki «mazmun»bayon etishdir. Navoiy o'z oldiga qo'ygan ikki masalani hayotiy mazmun va til masalasini katta muvaffaqiyat bilan hal etdi va asarning tarixiy takomilida yangi davr boshlab berdi. Qays - dostonning bosh qahramoni. U samimiy oshiq, iste'dodli shoir va oliyjanob tabiatli inson. Qays kekxa bir qabila boshlig'ining

yolg'iz o'g'li. U go'daklik chog'idan boshlab o'qish ishtiyoqi va zehn qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turadi va tez orada yaxshi bilimdon kishi bo'lib yetishadi. Qays, ya'ni Majnun o'zining maktabdoshi, kattaroq qabila boshlig'ining qizi Laylini sevib qolgan edi. Layli – tashqi qiyofasi bilan ham, ma'naviy dunyosi va xulq-atvori bilan ham nihoyatda go'zal qiz. U hayotga ezgu orzu-niyatlar bilan qaraydi. G'ayrat bilan o'qiydi, bilim oladi. Layli kishining mol-dunyosi, nasabi va mansabi bilan emas, balki insoniy xislatlari bilan baholaydi. Layli - vafoli yor, sevgi uning ma'naviy dunyosini yanada boyitadi. U Qaysga bo'lgan sevgisini hamdamlik deb biladi. U hayotiga qancha azob-uqubat, alam-iztirob cheksa ham, ko'ziga o'zi emas, Qays ko'rinadi. O'zi g'am-qayg'u yukki ostida ezilsa-da, lekin undan Qaysni qutqarishga intiladi, juda bo'lmasada so'zi bilan uni yupatishga harakat qiladi. Hatto hayoti nihoyalayotganini fahmlagan chog'da ham fikr-u xayoli Majnun bilan birga bo'ladi. «Layli va Majnun» besh asrdan beri kitobxonalarining sevikli dostoni bo'lib kelmoqda. U o'zbek xalqi orasida emas, balki ozarbayjon, turkman, tatar, turk va boshqa xalqlar orasida ham keng shuhrat topgan. Navoiyning «Layli va Majnun» asari ko'p shoirlarni shunday asar yozishga ilhomlantirdi va ularning ijodiga samarali ta'sir etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmon Qobilov. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI OBRAZ-TIMSOLLAR KO'LAMI TADQIQIGA DOIR. Konferensiyalar | Conferences, 1(5), 49–54
2. РАХМОНОВА Ш - МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕРА НАВОИ, 2023 - tadqiqot.uz
3. Bakhronova, I. (2022). Typological Properties of Navoi and Shakespeare. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 1(1), 19–21.
4. Maxmudov Sardorbek Esonali o'g'li, & Rahmonaliyeva Shahnoza Yorqinjon qizi. (2024). LIRIK ASARLARDA MAJOZIY ISHQ CHIZGILARI. Miasto Przyszłości, 46, 685–688.
5. Ziyoratova N. Ikki majnun — tanho ishq. Philological issues are in the eyes of young researchers 1 (1), 2023
6. Jabborov. N ALISHER NAVOIY IJODINING ISLOMIY-MA'RIFIY ASOSLARI Текст научной статьи по специальности «Языкознание и литературоведение» - 2023.
7. Allanazarova, D. (2023). SHAXS KAMOLOTIDA ALISHER NAVOIYNING MUSIQIY TA'LIMOTI VA UNING MARKAZIY OSIYO XALQLARI MILLIY MEROSI BILAN UYGUNLIGI. Молодые ученые, 1(5), 46–54.